

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

O'ZBEK MILLIY BAYRAM VA SAYILLARIDAGI XALQ O'YINLARI

Gapparova Baxtigul Razaqovna

Bog'ot tumani ixtisoslashtirilgan maktabi

tarix fani o'qituvchisi, O'zbekiston

gaffarobaxtigul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davrlardan boshlab Xorazmda o'tkazilib kelinayotgan xalq sayillari, bayramlar, turli xil tadbirlar haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shu bilan birga bu sayllarning qay maqsadda o'tkazilgani, shuningdek sayillar vaqtida qanday rasm-rusumlar bajarilgani, turli xil bayramlar va xalq sayillarining xalq hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq sayillari, sumalak sayli, sumalak, maydonlar, urf-odatlar, marosimlar.

Аннотация: В данной статье собрана информация о народных гуляньях, праздниках и различных мероприятиях, которые с древних времен проводились в Хорезме. При этом освещены сведения о цели этих торжеств, а также о том, какие обряды совершались во время торжеств, о значении различных праздников и народных гуляний в жизни народа.

Ключевые слова: народные праздники, сумалак, реликты, традиции, обряды.

Annotation: This article contains information about folk festivals, holidays and various events that have been held in Khorezm since ancient times. At the same time, information about the purpose of these celebrations is covered, as well as about what rituals were performed during the celebrations, about the significance of various holidays and folk festivals in the life of the people.

Key words: festivals, sumalak, fields, traditions, rituals.

Kirish. Sayil so'zi sayr qilmoq, kezib tomosha qilmoq ma'nolariga egadir. Sayil deganda umuman katta va tantanali tomoshalar bilan bog'liq har xil marosimlar e'tiborga olingan. Sayil har yili ma'lum fasllar bilan bog'liq bo'lib, kishilarning sayilga chiqishi, soya-salqin joylarda to'planib, ochiq maydonda tomosha-istirohat tashkil qilishi bilan boshlangan va uch kundan bir haftagacha, ba'zan bir oy davom etgan.

O'rta Osiyo aholisining xalq sayillari, hayit bayramlari ikki xil bo'lib, ular:

1. Tabiiy voqealarga bag'ishlanganlari: yil boshi bayrami (Navro'z), ochilish bayrami, gulxanda isinish bayrami, Mina kechasi va boshqalar;

2. Diniy marosimlar (Islomgacha bo'lgan davrda) arvoqlar uchun o'tkazilgan. Bu haqida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida qadimiy eronliklar, xorazmiylar, so'g'diylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning kalendaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar hamda ularda tanovul qilinadigan oziq-ovqatlar haqida ma'lumotlar keltiriladi[1].

Sayillar shaharlarda, registon maydonlarida, chorsu va rastalarda, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda, shuningdek, qadamjolarida o'tkazilib, bir, ikki hafta davom etgan. Sayilgohlarda oshxona, choyxona, nonvoyxonalar qurilgan, meva-cheva, attorlik, baqqollik do'konlari ochilgan. Poyga, uloq, ko'pkari, kurash, chavgon musobaqalari, darvoz, hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz, qiziqchilarning chiqiqshlari, ayiq, ilon o'yinlari, tuya, qo'chqor, xo'roz, it urishtirish, mushakbozlik tomoshalari ko'rsatilgan[2].

Adabiyotlar tahlili. Xorazm vohasida asosan "Navro'z" bayrami, sumalak sayli, "Qizil gul" bayrami, "qovun sayli" kabi sayillari keng nishonlangan. Ular shahardagi bozor maydonlarida, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda o'tkazilgan. Sayil o'tkaziladigan joylarda oshxona, choyxona, novvoyxonalar qurilgan, meva-cheva, baqqollik do'konlari ochilgan, o'g'il bolalar ijrosida "Aliqambar", "Norim-norim", "Orazibon", "Aravadagi o'yin" kabi ommaviy

xalq o'yinlari o'ynalgan, sozanda-go'yanda va masxarabozlar san'ati namoyish qilingan, qiz va yigitlar ishtirokida "qiz quvish" o'yini tashkil qilingan.

G.P.Snesarevning yozishicha, katta sayillarda, odamlar orasida echki terisini kiyib, boshiga shoh qadab sayilga chiqqanlar ham bo'lar ekan[3].

Sayillarning har yili dehqonchilikni boshlash, hosil bayrami sifatida nishonlanishi, qizil gulga muqaddas deb qarash bilan bog'liq tantanalar, sehr-jodu yordamida yovuz kuchlarni bo'ysundirishga intilish, totemlarga, o'lgan kishilar ruhiga sig'inish ibtidoiy jamoa davridan xorazmliklarda an'ana sifatida o'tgan asrgacha saqlanib kelgan va hozir ham qisman saqlanmoqda[4].

Xalq saylida har kim o'ziga yoqqan tomosha, ko'rik, musobaqa, qiziqarli o'yinlarda qatnashishi mumkin bo'lgan. Bir joyda bayram ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlar; ikkinchi bir joyda dor o'yini, polvonlar musobaqalari; uchinchi joyda askiyachi, qiziqchilar chiqishi, teatr tomoshalari; to'rtinchi joyda badiiy havaskorlik jamoalari, folklor-etnografik ansambllar konsertlari; beshinchi joyda sport musobaqalari (kurash, poyga, chavandozlik) kabilarni uyushtirilgan[5].

Xorazmda an'anaviy ravishda o'tkazilgan sayillar juda rang-barangdir.

Sumalak sayli: Sumalak xalqimizning ardoqli shodiyonasi - Navro'zning ko'rkidir. Sumalak-Navro'zning shoh taomi bo'lib, u ilk ko'klam darakchisi, baraka, hosildorlik, to'kin-sochinlik, ahillik, tan sihatlik va ezgulik timsoli hisoblanadi. Shuning uchun ham sumalak tayorlanadigan xonadonda turli xil o'yin kulgu va har xil xalq o'yinlari o'tkazilgan.

Sumalakning tayyorlanish jarayoni ayollarning o'ziga xos marosim-tadbiriga aylanib ketadi. Sumalak ayollarning bir jamoa bo'lib harakat qilishi natijasida tayyorlanadi. Ular sumalak tayyorlash, uni pishirish paytida bir-birlari bilan suhbat qilishgan, hikoyalar, ertaklar, rivoyatlar va latifalar aytishgan. Sumalak pishgach uni tayyorlashda qatnashganlar va boshqalar sumalak yeyish uchun taklif etilgan. Sumalak sayli ishtirokchilari childirma (doira) chalib, raqsga tushishgan, qo'shiqlar aytib xursandchilik qilishgan. Sayil hazil-mutoyiba, o'yin-kulgi bilan o'tgan. Shuningdek, sumalak tayyorlanayotgan qozon atrofida o'ynab yurgan yosh bolalarning do'ppisi yoki ko'ylagi yoqasiga maysa gular taqishib, kelgusi sumalakkacha sog'-salomat yuringlar, kelgusida el-yurt uchun xizmat qiluvchi yigit-qizlar bo'lib yetishinglar, deb ramziy niyatlar qilishgan.

Sumalak tayyorlash natijasida kishilar ham moddiy, ham ma'naviy oziq olishgan. Sumalak pishayotganda momolar, qiz-juvonlar to'planib, o'yin-kulgu qiliishgan, bayt-g'azallar aytishib, ko'ngillarini xushnud etishgan. Folklorshunos T.Qilichev Xorazm vohasida sumalak sayli bilan aloqador "Ashshadarozi" o'yinini aniqlagan[6].

Sumalak sayli haqida xonqalik Sotima ana Sapayeva shunday xotirlaydi: "Yoshlik paytlarimizda momolarimiz, onalarimiz bilan sumalak sayliga borardik. Unda mahalla ahli yoki qarindosh-urug'lar birgalikda sumalak pishirishardi. Kattalar sumalak tayyorlasalar, biz yoshlar qo'shiq aytib, raqs tushardik, yoki kelin salomlar qilinar edi. Bu paytlarda qishloqlarda teatr, konsertlar kam bo'lar edi, sumalak sayli esa biz uchun madaniy hordiq vazifasini ham bajargan[7]".

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, sumalak sayli ma'naviy hayotda muhim o'rin tutib, u qadimdan kishilarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan va bu joyda xalq o'yinlari, turli xildagi marosimlar, rasm-rusumlar, urf-odatlar bajarilganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, festival doirasida, konsert dasturlari, tasviriy san'at asarlari namoyishi, hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi, darbozlar o'yini, xon va a'yonlari chiqishi, qo'g'irchoq teatri tomoshalari, milliy taomlar tayyorlash bo'yicha mahorat darslari, xorazm noni tayyorlash bo'yicha mahorat darslari, milliy liboslar ko'rgazmasi, jonli ijrodagi sahna ko'rinishlari va boshqa madaniy tadbirlar bo'lib o'tadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sayillar xalqimizning minglab yillik tarixga ega bo'lgan an'analari hisoblanadi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgani uchun yashab kelmoqda, chunki ularda xalqimizning o'ziga xos

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

bo'lgan milliylik aks etadi. Bayram va sayllar kishilarni tabiat va inson go'zalligini e'zozlash, ardoqlash ruhida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matkarimova S.M. Xorazm vo'xasi a'holisining an'yanaviy ovqatlanishi. Doktorlik dissertatsiyasi. – Urganch, 2021. – B. 216.
2. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2004. 7-jild. – B. 44.
3. Snecarev G.P. Под небом Хорезма (Этнографические очерки). - М., 1973. - С. 80; Snecarev G.P. Xorazm osmoni ostida (Ўзбек тилга таржимаси С.Маткаримова ва Н.Маткаримова). – Урганч 2020. – Б.85.
4. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. - Toshkent. 1988. – B. 63.
5. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. - Toshkent. 2003. – B. 107.
6. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. - Toshkent: Sharq, 2002. – B. 83.
7. Dala yozuvlari. Sapayeva Fotima, 69 yosh. Honqa tumani Madir qishlog'I Ilg'or mahallasi Jahongirlar ko'chasi, 102-uy, 2023 yil.